

HINDISTONNING BIRINCHI SHAHANSHOHI

(IMPERATORI) KIM BO'LGAN?

Xarapp sivilizatsiyasi bilan bog'liq shaharlar gullab-yashnash davridan o'tib, tanazzulga yuz tutgach, Hindistonning boshqa hududlari gurkirab rivojlana boshlaydi. Boshqa yirik, masalan, Gang singari daryolar havzasida joylashgan viloyatlar, mahalliy xalq sholi etishtirishi tufayli boyib boradi. Eramizdan avvalgi 600 yilda Gang vodiysida uncha katta bo'lmagan kamida 16 davlat mavjud edi. Eramizdan avvalgi V asrda ular biri-biri bilan muttasil jang qilardi. Kuchli davlat kuchsizroqlarini o'ziga bo'ysundiradi. Asta-sekin ularning bari Magadxa podsholigi tarkibiga qo'shila boradi.

Eramizdan avvalgi IV asr oxirida Magadxada taxtni Hindistonning birinchi chinakam shahanshohi (imperator) Chandragupta Maurya qo'lga kiritadi. Bu davrga kelib shahanshoh tomonidan asos solingan davlat qit'aning katta qismini egallagandi. Chandragupta Maurya hukmronlik qilgan davrda saltanat shimoli-g'arbga tomon kengayib boradi, hind daryosi havzasini qamrab oladi, Markaziy Hindistondan janubga qarab yoyiladi hamda hozirgi Afg'oniston hududini egallaydi.

Chandraguptaning o'g'li Bindusara davlat chegaralarini ancha kengaytirib yuboradi, lekin uning o'g'li Ashok davridagina mauryalar saltanati chinakamiga yirik saltanatga aylanadi.

BOBUR KIM BO'LGAN?

Sohibqiron Amir Temurning avlodidan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) XVI asr oxirida Farg'onada hukmronlik qilgandi. U bobomeros Samarqandni qaytarib olmoqni niyat qiladi, biroq muvaffaqiyatsizlikka uchrab, vatanini tark etadi. Qobulni qo'lga kiritib, Hindistonga yurish boshlaydi. Qo'shinni Xaybar dovonidan olib o'tgach, hind tekisliklariga qarab tushib boradi. Bobur jangda Dehli sultonini nobud qiladi, keyingi yili esa Agra yonidagi jangda rajputlarni yakson qiladi. Rajputlar Hindistonda eng yaxshi jangchi hisoblanishardi, lekin ular fil ustida jang qilishardi. Boburning navkarlari esa uchqur va chaqqon otlarda jang olib borardilar. Shu bois ular g'alaba qozondilar. Tez orada Bobur butun Shimoliy Hindistonni egallaydi hamda saltanatning birinchi hukmdori bo'lib qoladi. Saltanat esa turli davrlarda o'z hududini o'zgartirib, 1857 yilgacha hukm surib keldi.

Bobur asos solgan davlat Buyuk Mo'g'ullar saltanati nomini oldi.

QADIMGI XITOIY SIVILIZATSIYASI QAYERDA

VA QACHON VUJUDGA KELGAN?

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi shimoliy Xitoyda, Vey va Xuanxe daryolari vodiysida yuzaga kelgan. qadimgi dunyodagi barcha sivilizatsiyalar — Yevropa, Osiyo, Afrika sivilizatsiyalari orasida bu sivilizatsiya eng mahdudi bo'lib, boshqalardan deyarli hech narsa olmagan.

Eramizdan avvalgi VI ming yillikka kelib dehqonlar daryo vodiylaridagi unumdor yerlarda asosan tariq etishtirishar, shuningdek, cho'chqa urchitishardi. Bu qadimgi odamlar loydan chiroyli naqshlangan buyumlar tayyorlashardi.

Eramizdan avvalgi taxminan XVIII asrlarga kelib Xuanxe vodiysidan uzoq bo'lmagan tog' bag'ridan metall qazib olgan odamlar bronza asri sivilizatsiyalaridan birini yuzaga keltirishadi. O'sha paytda hukmron bo'lgan Shan sulolasi nomidan kelib chiqib, u Shan davri sivilizatsiyasi, deb ataladi.

Ajdodlarga topinish — xitoyliklar e'tiqodining muhim qismi. Karomatli folbinlik suyaklari yordamida ular ajdodlar bilan maslahatlashishardi. Bular hayvon suyagi yoki toshbaqa kosasi bo'lib, ularga ajdodlar ruhiga va ma'budlarga murojaat qilib savollar o'yib bitilardi.

Eramizdan avvalgi XI asrga kelib Chjoy qabilalari mamlakatni bosib olgach, Shan sulolasi barham topdi. O'sha davrga xos ko'plab an'analar saqlab qolindi hamda eng so'nggi xitoy sivilizatsiyasi tomonidan meros qilib olindi.

DASTLABKI XITOIY IMPERIYALARI

QANDAY BO'LGAN?

Taxminan eramizdan avvalgi 1100 yillarda Shan sulolasi hukmdorlarini tor-mor keltirgan Chjou sulolasi deyarli ming yil hukm surdi. Bu davrning birinchi yarmi g'arbiy Chjou deb ataladi. Buning boisi siyosiy markaz hozirgi Shensi viloyati hududida joylashganligidadir.

G'arbiy Chjou bir nechta poytaxti bo'lgan zaif siyosiy tuzilma edi. Keyinchalik siyosiy markaz Sharqqa ko'chgan. Eramizdan avvalgi 771—481 yillar Sharqiy Chjou davri deb atalib, poytaxti Loyan (Xenan) edi. Chjoularning so'nggi davri — urushayotgan shohliklar davri eramizdan avvalgi 221 yilga to'g'ri keladi.

Ushbu ming yillik Chjou sulolasi nomi bilan atalsada, bu sulola eramizdan avvalgi VIII asrga kelib butun mamlakat ustidan hukmronlik qilmay qo'ygan edi. Chjou sulolasi merosiy yer egaligini qarindoshlarga yoki sodiq a'yonlarga bo'lib, hokimiyatni saqlab qolayotgan edi. Ular esa buning evaziga sulolani siyosiy va g'arbiy jihatdan qo'llab-quvvatlashardi. Ayrim viloyatlarning hokimlari kuchaya borib, o'z hududlarini to'la nazorat ostiga ola boshlagach, bir-biriga qarshi ham, hukmdorga qarshi ham birlasha

boshlagach, hukmdor shoh hokimiyatni qo'ldan bera boshlaydi, natijada o'sha viloyatlar mustaqil podsholikka aylana boradi. Ular temir va tuz savdosi orqali boyiy boshlaydilar.

Sharqiy Chjou davrida podsholiklar o'rtasida ustunlik uchun kurash borar, dam biriga, dam boshqasiga muvaffaqiyat yor bo'lardi. Eramizdan avvalgi V asrga, kurashayotgan podsholiklar davriga kelib podsholiklar soni sakkiztadan oshmadi.

KONFUTSIY KIM BO'LGAN?

Xitoyda eramizdan avvalgi VI asr atrofida yashagan Konfutsiy dunyodagi eng zabardast diniy ustozlardan bo'lgan. Konfutsiy qadimgi xitoy qo'lyozmalarini o'rgangan, ulardan olijanob shaxsni kamol toptirishda zarur deb hisoblangan g'oyalarni olgan. Keyinchalik u bu g'oyalarni jamiyatning barcha qatlamlari — imperatorlardan tortib talabalargacha — maslahat so'rab kelganlar orasida targ'ib qilgan. U 2400 yil ilgari asoslab ketgan tamoyillar hozir ham mukammal hisoblanadi.

Uning ismi xitoycha Kung Futse tarzidadir. Konfutsiy 22 yoshga etib, uylangandan so'ng 3 yil o'tgach, odamlarni saodatmand yashashga o'rgata boshladi. Uning baxt-saodatga erishish borasidagi asosiy qoidasi — «O'zingga ravo ko'rmagan ishni — boshqalarga ham ravo ko'rma» — degan oltin qoidadir.

Konfutsiy ko'plab hukmdorlar xizmatida bo'ldi, ularda mehr-muhabbat, adolat, hurmat, donishmandlik va samimiyatga asoslangan axloqiy boshqaruv me'rlariga qiziqish uyg'otishga intildi.

Uning ta'limotidagi asosiy jihatlardan biri — ota-onaga hurmat — Xitoyda katta e'tibor topdi. U ota-onaning hurmatini tirikligidagina emas, ular yorug' dunyodan o'tib ketganlaridan keyin ham joyiga qo'yish lozimligiga o'rgatadi. Ajdodlarga sig'inishning bu shakli Xitoyda uzoq vaqt namoyish etilgan tamoyil — ortga qaramay olg'a borish o'rniga o'tmishga murojaat qilish tamoyilida namoyon bo'ldi.

Konfutsiy o'zini xudo deb hisoblamasdi. U, aslida, oliy borliq to'g'risida, oxirat to'g'risida hech narsa yozmagan. U, inson tabiatan rahmdil bo'lib, sog'lom fikrga egaligiga ishonar, boshqa odamlar bilan totuvlikda yashab, ezgulikni saqlab qolish lozimligiga umid bog'lardi.

Konfutsiy vafotidan keyingi V asr mobaynida uning ta'limoti davlat falsafasi bo'lib keldi. Biroq buddaviylik yuzaga kelgach, konfutsiylik amalda bir muddat unutib qo'yildi. Keyinchalik u qayta jonlanib, hatto hozirgi kunlarda ham Konfutsiy ta'limoti millionlab kishilar hayotiga ta'sir o'tkazmoqda.